Замон талаби

Ахборот технологиялари ҳозирги даврнинг энг тез суръатларда ривожланаётган ва ҳаётимизнинг ҳар бир соҳасига кириб келаётган соҳаларидан биридир. Бу соҳа дастлаб фақат илмий марказлар ва йирик компанияларда мавжуд бўлган бўлса, ҳозирги кунда энг оддий қишлоқ мактабидан тортиб, деҳқон хўжалигигача ахборот технологияларининг имкониятларидан фойдаланилмоқда.

Ахборот технологияси деганда, биз аввало, маълумотлар билан ишлаш, уларни яратиш, сақлаш, узатиш ва қайта ишлаш учун зарур бўлган барча техник воситалар ва дастурлар мажмуасини тушунамиз. Бу дегани, компьютер, планшет, мобиль телефон, интернет, электрон ҳужжатлар, мобиль иловалар, булутли технологиялар – буларнинг барчаси ITнинг бир бўлагидир.

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Ҳар куни биз хабарлашиш, иш юритиш, билим олиш, харид қилиш, давлат хизматларидан фойдаланиш, ҳаттоки дам олиш пайтида ҳам ахборот технологияларидан фойдаланаяпмиз. Масалан, биргина мобиль телефон орқали банк картамиздаги маблағни текширишимиз, ҳисоб-китоб қилишимиз, онлайн дарсга қатнашишимиз, расмга тушишимиз, хат юборишимиз, ҳужжат тўлдиришимиз мумкин. Шунчаки битта кичик қурилма орқасида турли дастурлар, алгоритмлар, серверлар ва тармоқлар фаолият юритмоқда. Бу эса IT соҳасининг қудратини кўрсатади.

Мактабларда ўқувчиларнинг кундалик баҳолари, дарс жадвали, ўзлаштириш кўрсаткичлари электрон кундалик орқали назорат қилинмоқда. Бу тизим орқали ота-оналар ҳам фарзандининг дарсдаги ҳолатидан тезкор хабардор бўлиш имконига эга. Бундай хизматлар ҳам ахборот технологиялари орқали ишга туширилган. Бугунги мактаб ўқувчиси фақат дафтар ва қалам билан чекланиб қолмай, интернетдаги онлайн платформалар, мобиль иловалар орқали қўшимча билим олмоқда.

Шунингдек, ахборот технологияларининг тиббиётдаги ўрни ҳам йилдан-йилга ошиб бормоқда. Ҳозирги кунда поликлиникалар ва шифохоналарда электрон навбат тизими йўлга қўйилган. Беморларнинг касаллик тарихлари, текширув натижалари электрон тизимда сақланади. Айрим жойларда ҳатто шифокор билан масофадан маслаҳатлашиш, онлайн рецепт олиш имконияти ҳам яратилган. Бу имкониятлар беморлар учун катта янгилик яратмоқда.

Қишлоқ хўжалиги соҳасида ҳам IT технологияларининг ўрни кучаймоқда. Масалан, суғориш тизимларининг автоматлаштирилган шакли, дронлар ёрдамида далаларни назорат қилиш, ҳосилдорликни башорат қилиш тизимлари деҳқончиликда катта самарадорлик келтирмоқда. Ўзбекистоннинг турли вилоятларидаги фермер хўжаликлари энди суғоришни телефон орқали бошқариши, дала ишларини мониторинг қилиши мумкин.

Банк ва тўлов тизимларида эса ахборот технологияларсиз ҳаётни тасаввур қилиш қийин. Электрон тўлов тизимлари – Payme, Click, Uzum Bank, Apelsin каби иловалар орқали аҳолининг кундалик молиявий операциялари жуда тез, аниқ ва хавфсиз амалга оширилмоқда. Бу тизимлар орқали коммунал тўловлардан тортиб, солиқ, жарима, онлайн харидлар ва бошқа хизматларни бажарса бўлади. Айниқса, йирик шаҳарларга бориб навбат кутиш ёки бўлимга бориш зарурати камайган.

Бугунги кунда дунё бўйича IT соҳасига жуда катта эътибор берилмоқда. Рақамли иқтисодиёт, сунъий интеллект, киберхавфсизлик, робототехника, катта ҳажмдаги маълумотлар таҳлили каби йўналишлар бўйича минглаб иш ўринлари яратилмоқда. IT соҳасини ўзгартирган ёшлар халқаро миқёсда иш топиш, стартаплар очиш, ўз дастур ёки сервисларини ишлаб чиқиш орқали даромад топмоқда. Дастурчилар, график дизайнерлар, таҳлилчилар, вебилова ишлаб чиқувчилар, мобиль илова тузувчилар бугунги меҳнат бозорининг энг талабгир мутахассисларидир.

Ўзбекистон ҳукумати томонидан ҳам ахборот технологияларини ривожлантириш борасида қатор чоратадбирлар амалга оширилмоқда. "Рақамли Ўзбекистон – 2030" стратегияси асосида мамлакатимизда давлат хизматлари рақамлаштирилмоқда, IT марказлари, IT Парклар фаолияти кенгайтирилмоқда. Шунингдек, "Бир миллион дастурчи" лойиҳаси орқали ёшлар учун бепул онлайн дарслар, ўқув курслари, имтиҳон тизимлари ташкил этилган. Бу ҳаракатлар IT саводхонлигини ошириш ва ёшларни замонавий технологиялар асосида тарбиялашга хизмат қилмоқда.

Туман миқёсида олиб қараганда ҳам, эндиликда мактабларда IT тўгараклари очилмоқда, ахборот технологиялари хоналари жиҳозланмоқда. Кўплаб мактабларда ўқувчилар Scratch, Python, HTML каби дастурлаш тиллари билан танишмоқда. Ўқитувчилар эса электрон дарс ишланмалари, онлайн тест платформалари, мультимедиал тақдимотлардан кенг фойдаланмоқда. Буларнинг барчаси, ахборот технологияларининг таълим тизимидаги ўрнини янада оширмоқда.

Ахборот технологияларининг яна бир муҳим жиҳати – тезкорлик ва аниқликдир. Инсон омили бўлган жойда хатолик эҳтимоли ҳар доим мавжуд бўлади. Аммо рақамли тизимларда ҳар бир операция автоматлаштирилган, назорат қилинади ва изсиз йўқолмайди. Бу, айниқса, молия, таълим, тиббиёт ва бошқарув соҳаларида катта янгилик яратади. Шу сабабли ҳам давлат хизматларида илова ва порталлар орқали ариза топшириш, ҳужжат олиш, навбатга ёзилиш, тўлов қилиш каби тизимлар тобора оммалашмоқда.

Шуни ҳам унутмаслик керакки, ахборот технологиялари билан бир қаторда киберхавфсизлик масаласи ҳам долзарб бўлиб бормоқда. Чунки ҳар қандай рақамли тизимни бузишга уринадиган зарарли кучлар ҳам мавжуд. Паролни хавфсиз сақлаш, шахсий маълумотларни бегоналарга бермаслик, номаълум ҳаволаларни босмаслик – бу бугунги кун фойдаланувчиси учун муҳим рақамли маданиятга айланиши керак.

Хулоса қиладиган бўлсак, ахборот технологиялари замонавий ҳаётнинг ҳар бир жабҳасига чуқур кириб бормоқда. У ҳаётни осонлаштирмоқда, тезлаштирмоқда ва янги имкониятлар очмоқда. Туман аҳолиси ҳам бу ўзгаришлардан четда қолмаслиги, уларни ўз фаолиятида тўлиқ қўллашга ҳаракат қилиши керак. Айниқса, ёш авлодни ахборот технологияларига эрта жалб қилиш, уларга рақамли билим бериш, мустақил ишлаш кўникмасини шакллантириш бизнинг умумий бурчимиздир.

Шербой БОБОНАЗАРОВ,
17-умумий ўрта таълим мактабининг олий тоифали информатика фани ўқитувчиси.

«Водийларни яёв кезганда...»

Ички туризм

Пешиндан сўнг сафар тараддудини кўргач, "Термиз-Андижон" поездига чиқиш учун йўлга отланаман. Темир йўл вокзали бўйлаб юрар эканман, чипта бўйича вагон рақамини қидираман. Мана, ўша 6-вагон. Қўлимдаги сумкамни купе сандиғига жойлаб, соатимга қарайман. Соат миллари 15:39 ни кўрсатмоқда. Роппа-роса 1 дақиқадан сўнг поезд манзил сари одимлайди.

Ҳа, айтганимдек, электровоз чинқиригидан сўнг астасекин поезд жойидан қўзғала бошлади. Вагон деразасидан теварак-атрофга қарайман. Темир йўл изларидан чиқаётган "тақа-туқ" овоз борган сари кучая бошлайди. Саратоннинг жазирама иссиғига ҳамоҳанг ойнадан гармсел шамол юзингизга урилади. Салом-аликдан сўнг, уч нафар фарзанди билан Андижон бўйлаб саёҳатга чиққан аёл ўзини Назокат деб таништиради. Қизғин суҳбатимиз давомида мен ҳам оилам билан Наманган вилоятида жойлашган "Нодирабегим-Муҳаммадхон" сиҳатгоҳига дам олиб келиш учун бораётганимизни ҳамроҳимга тушунтираман. Водийнинг фусункор табиати, лафзи ҳалол деҳқонлари-ю, меҳмондўст одамлари ҳақида кўп бор эшитганлигини суҳбатдошим таъкидлайди. Водий ҳақидаги гурунгимиз қизигандан қизиб, бир зумда осмонни зулмат қоплаб, вагон деразаларидан қишлоқ ва шаҳарларни ёритиб турган чироқлар ёғдуси кўзга ташлана бошлади. Поезд эса бешик сингари гоҳо тебраниб, гоҳо илдамлаб зулмат қаърини ёриб боради. Қафасга тушган қуш мисоли купе эшигини дам-бадам очиб тинчи бузилиб, у ёқдан бу ёққа шўхлик қилаётган болажонларни ҳам уйқу элитди шекилли, бирин-кетин онаси қучоғига бекиниб зум ўтмай ухлаб қолишди.

Аёллар суҳбатидан зерикаман. Иккинчи қаватга чиқиб елдай учиб бораётган поезд шовқинига қулоқ тутаман. Шаҳар ва кентлардан таралаётган митти чироқларни бир пас томоша қиламан. Купе радиокарнайидан таралаётган маъюс мусиқа садосидан кўнглим ҳузурланади. Тобора босиб келаётган уйқу кўзларимга устунлик қилиб ором олишга чорлайди...

Вагон деразасидан юзларимиз узра тушаётган қуёш нури яна бир нурафшон тонг отганидан далолат бермоқда. Ҳа, яна бир нурли тонг...

Истиқлол йилларида юртимизда ўтказилган кенг кўламли ислоҳотлар натижаси ўлароқ, кўплаб соҳа ва тармоқларда бунёдкорлик ишлари амалга оширилди. Жумладан, мамлакатимиз қон-томири ҳисобланган темир йўлларни янгилаш, таъмирлаш, қайта реконструкция қилиш ишларига алоҳида эътибор қаратилганлиги ҳам фикримиз тасдиғидир.

Бугун водий бўйлаб саёҳатга, зиёратга, тўй-ю томошага отланган юртдошларимиз борки, замон талабларига тўлиқ жавоб бера оладиган кенг ва равон йўллар бўйлаб автоуловларда осмонўпар тоғлар биқинидан, гоҳо эса улкан тоғларнинг қоқ юрагини кесиб ўтувчи қисқа ва узоқ масофали тунеллар орқали манзилу маконига етиб олишади. Ям-яшил ястаниб ётган қир-адирликлар, маҳобатли тоғларининг соя солиб турган новот парчасидек қоялари узра сузиб бораётган поезд вагони ойналаридан теварак-атрофни кузатар экансиз, қалбингизда ажиб бир ҳис уйғонади. Водийнинг бетакрор кент ва шаҳарлари, қишлоқ, овулларини боғлайдиган бу улкан довон йўли, бир сўз билан айтганда, диллар-ни-дилларга манзилларни-манзилларга улайдиган аср мўъжизаси.

Сўлим гўшалари-ю, меҳмондўст одамлари билан республикамиз вилоятлари орасида алоҳида ажралиб турадиган водийликлар олижаноблигига Ғафур ва Шермирза акалар ҳамда Мавлонбек, Маъсумхон укаларимиз мисолида яна бир бор амин бўлдик. Тақдир тақозоси билан "Поп" темир йўл вокзалида танишиб қолдик. Термиз шаҳрида ҳарбийда контракт бўйича хизмат қилаётган ўғлининг оиласини, невараларини кутиб олишга чиққан Ғафур ака очиқ чеҳрали одамохун инсон эканлиги юз-кўзидан зоҳир.

-Мана, бу уч нафар неварам ҳам Сурхондарёда туғилган. Учта ўғлим ҳарбийлик касбини танлашган. Бири Термизда, бири Какайди қўрғонида, яна бири эса Қаршида, -дейди Ғафур ака тўлқинланиб.

-Худога шукур ҳар ёзда невараларим, келинларим келишади. Бугун Шаҳнозахон келинимни ва невараларни кутиб олишга чиққандик, қарангки, сиз билан танишиб қолдим. Аммо бир нарсани айтай, Шермирза акангизнинг ўғиллари ҳам ҳарбий, Сурхондарёда хизмат қилади. Шу сабаб, Термиз иккинчи уйи бўлиб қолган. Невараларини кўргиси келса, Сурхон воҳаси бир қадам бу кишига.

Водий шевасида ўзаро ҳазил-ҳузул қилаётган бу икки акахон аслида бир-бирларига божа экан.

Қирликлар этагида жойлашган қишлоқ манзараларига ҳавас билан боқаман. Йўл чеккалари бўйлаб экилган, кўкка бўй чўзиб турган теракларга ҳамоҳанг олма дарахтлари, экин майдонларини ортда қолдирганча, Чуст шаҳрига кириб борамиз. Чуст тумани марказининг замонавий қиёфаси кўз олдингизда намоён бўлади. Қад ростлаган осмонўпар бинолар, дўкон-у чойхоналар, гўзал ва кўркам масжитлар, гавжум одамлар билан тўла-тўкис бозорлар...

Автоуловлар оқимида сузиб Косонсой туманига етиб келдик. Жанубнинг саратон иссиғига кўниккан танамизга Косонсойнинг майин шабадаси урилиб, вужудимиз яйрайди. Ва ниҳоят, манзилга ҳам етиб келдик. "Чотқол" тоғ тизмалари этагида жойлашган "Нодирабегим-Муҳаммадхон" сиҳатгоҳи мафтункор табиати, тоза об-ҳавоси турли хил мевали ҳамда манзарали дарахтлари, турфа ва анвойи гуллари билан бошқа санаториялардан алоҳида ажралиб туради. Соддадил одамлари, меҳрибон шифокорлари, қўли ширин ошпазлари томонидан ҳар бир дам олувчига иззат-икром кўрсатилади. Хуллас, 12 кун давомида соғлигингизни тиклаб мароқ билан ҳордиқ чиқаришингиз учун барча шарт-шароитлар яратилган. Даволашнинг замонавий усуллари ёрдамида чиройли ва кўркам биноларда дам олиб қайтасиз.

-Бу ернинг ажиб хислати шундаки, энг аввало, тоза ҳавоси танга даъво бўлса, зилол сувли булоғи инсон саломатлиги учун шу қадар фойдалики, асти қўяверинг, -дейди сиҳатгоҳ шифокори Матлуба опа.

Дарҳақиқат, шифокор таъкидлаганидек, тоғ-ён бағирларидан эсаётган енгил шамол кечга бориб танани жунжуктирувчи шабадага айланади. Бу дам олиш масканига республикамизнинг турли вилоятларидан юртдошларимиз ташриф буюришган. Самарқандниг Каттақўрғон туманидан келган Жамшид ака ва турмуш ўртоғи Розия опа, косонсойлик Бахтиёр ака ва рафиқаси Назирахонлар бу маскан обҳавоси-ю, хушманзара табиатидан тортиб, олижаноб шифокорлари ҳақида тўлқинланиб гапиришди.

-Бу маскан турмуш ўртоғим ва менга жуда-жуда ёқди, -дейди каттақўрғонлик Жамшид ака. – Муолажаларига ҳамоҳанг об-ҳавосининг ўрни бўлакча. Санаторий замон талабларига мос равишда қурилган, шинам, кўркам бўлиши баробарида бу ерда хизмат қилаётган шифокорлару-ҳамшираларнинг ширинсўзлиги ҳар қандай дарддан фориғ қилади, кишини.

Бугунги даволниш муолажаларини ҳам олиб бўлганмиз. Оилам билан 3-қаватда жойлашган супачада теварак-атрофни маҳлиё бўлганча кузатиб бир-биримизга бу жойнинг гўзал табиати, анвойи гуллари ҳақида гаплашиб ўтирибмиз. Телефонимнинг жиринглаган овози диққатимни бузди. Экранда косонсойлик Мавлонбек укамизнинг рақами пайдо бўлди.

-Алло, –дея саломлашаман.

-Ака, келинойим билан соат 17:30 ларда тайёр турингизлар, мен бораман. Наманганнинг энг гўзал жойларини томоша қилдираман, қолганини борганда гаплашамиз, -дея гўшакни қўяди.

Мавлонбек Муҳаммаджонов асли Косонсой туманидан. Бир неча йиллардан буён Сурхондарё вилоятида шартнома асосида ҳарбий хизматни ўтаб келмоқда. Бахтга қарангки, айни кунларда юртига, таътилга келган экан. Бизнинг шу ердалигимизни эшитибоқ дарров сиҳатгоҳ томон отланибди. Маъсумхон дўсти ҳамроҳлигида Наманган вилоятининг энг гўзал жойларини биргаликда сайр-у сайёҳат қилдик. Айниқса, "Афсоналар водийси" кўнгилочар боғи бизда катта таассурот қолдирди. Осмонўпар чархпалакларида учар эканмиз, осмон узра гўзал водийнинг тун қўйнидаги жозибадор қиёфасини ҳайрат ила зимдан кузатдик. Қирғизистон Республикасига туташ бўлган "Нанай"да бўлиб, "Бешбармоқ" номли таомларидан маза қилиб тановул қилдик. Ҳамроҳларимиз Мавлонбек ва Маъсумхон укаларимизга чин дилдан миннатдорчилик билдирдик. Шунингдек, Косонсойнинг диққатга сазовор жойларини кўриб бир олам тассуротлар оғушида, насиб қилса келгуси йил ҳам ушбу гўшада дам олиб, ҳордиқ чиқаришни дилимизга тугиб қайтдик.

Сайдулла ШОБЕРДИЕВ,
ДХХ Чегара қўшинлари хизматчиси.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari

Bolajonlar uchun mehr va bilim maskani

Bolalar ta'lim va tarbiyasiga e'tibor qaratish – kelajagimizga qo'yilgan mustahkam poydevordir. Bolalar bog'chasi kichkintoylar uchun ilk ilm oladigan, ijtimoiy muhitga moslashadigan va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'radigan maskandir. Maktabgacha ta'lim bolaning jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

Mana, 30 yildan buyon tumandagi Fidokor va Buyuk ipak yo'li mahallasida maktabgacha ta'lim tashkiloti yo'q edi. Natijada ko'plab ota-onalar farzandlarini maktabga tayyorlashda turli qiyinchiliklarga duch kelishardi. Bu kabi muammolarni hal etishda "Fidokor" mahallasida istiqomat qilib kelayotgan 20-maktabning rus tili o'qituvchisi Svetlana Jumayevaning xizmatlari katta bo'ldi. U kishi Termiz shahrida Prezident bilan uchrashuvda shu muammoni ko'tarib chiqib, el-xalqimizga beminnat yordam berdi. Shundan so'ng masala Prezident nazariga tushib, Fidokor mahallasida qulay joydan maktabgacha ta'lim tashkiloti qurishga kirishildi va ishlar jadal boshlab yuborildi. 2023-yil yanvar oyida bog'cha ish faoliyatini boshladi.

To'qson o'rinli, sendvich panelidan tiklangan bo'lib, bolalar ehtiyojini qondirish va sifatli ta'lim berish talabiga javob beradi. Bog'chaning ochilishi nafaqat bolalar, balki butun qishlog'imiz uchun muhim va zo'r yangilik bo'ldi. Endi ota-onalar o'z farzandlarini maktabgacha ta'lim tashkilotida xat-savod chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldilar, bolalar esa do'stlari bilan birga o'qish va o'rganish uchun qulay sharoitga ega bo'ldilar. Bog'chamiz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, o'g'il-qizlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratilgan. Xonalar yorug', shinam, bolalar uchun zamonaviy mebel va didaktik materiallar, sog'lom ovqatlanish uchun maxsus oshxona, kutubxonada esa bolalar uchun maxsus kitoblar va ertaklar jamlanmasi, ijodiy va intellektual mashg'ulotlar uchun maxsus burchaklar ham tashkil etilgan.

Bolalar har tomonlama rivojlanishi uchun bog'chamizda quyidagi yo'nalishlarda mashg'ulotlar olib boriladi. Xususan, nutq va fikrlashni rivojlantirish, ijodiy mashg'ulotlar, jismoniy va axloqiy tarbiya, atrof-muhitni anglash va undagi turli jarayonni bilish kabilar. Darvoqe, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik ham bog'chamizda ta'lim sifatini yanada oshirmoqda. Masalan, Mersu Corps xalqaro tashkiloti bolalar uchun sovg'alar va o'quv materiaallarini taqdim etmoqda. Shuningdek, tarbiyachilar uchun seminar va treninglar tashkil etib, har bir pedagogga ish faoliyati uchun ishlatishga mo'ljallangan o'quv qurollari berildi. Ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida esa yangi yondashuvlar, qiziqarli metodlar joriy etilmoqda.

Bog'chamizda ota-onalar faolligini oshirish va ularni tarbiyaviy jarayonga jalb qilish uchun ochiq eshiklar kuni, turli seminar va treninglar olib borilmoqda. Ota-onalar farzandlari ta'lim olayotgan maskan bilan tanishib, undagi sharoitlardan mamnun bo'lib kelishmoqda. Faoliyatimiz kamko'stini birgalikda hamjihatlikda to'ldirib boramiz. Biz, tarbiyachilar, ota-onalar davlatimiz bizga va bolajonlarga berilayotgan bunday sharoitlardan unumli foydalanib, sog'lom avlodni tarbiyalashda jon-jahdimiz bilan harakat qilamiz.

Salomat TO'RAQULOVA,
25-DMTT kichik guruh tarbiyachisi.

Шифокор маслаҳати

Йод етишмаслиги нима?

Йод қалқонсимон без гармонлари тероксин (Т4) ва трийодтироннинг (Т3) таркибига киради ва моддалар алмашунивига фаол таъсир кўрсатади. Йод қалқонсимон томонидан фаол ютилиб унинг асосий оқсили тиреоглобупинда кўп миқдорда тўпланади. Йод овқат билан етарли миқдорда қабул қилинмаса организмда йод етишмаслиги оқибатида қалқонсимон без катталашиб буқоқ пайдо бўлади. Касаллик одамни ўраб турган муҳитда йод миқдорининг камайиб кетишига боғлиқ. Бу ҳолат овқат маҳсулотлари ва ичимлик сувнинг йодга кам тушишига олиб келади. Жой баландлиги денгиз сатҳидан нечоғлик юқорилашган сайин тупроқ ва сувдаги йод миқдори камайиб боради.

Бу касалликнинг пайдо бўлишига ташқи муҳитда йод етишмаслигидан ташқари, бошқа омиллар ҳам таъсир қилади. Буларга мувозанатлашмаган овқатланиш (оқсиллар, ёғлар, углеводлар, витаминлар), жисмоний зўриқиш натижасида организмнинг умумий ҳолсизланишини киритиш мумкин. Касаллик аксарият навқирон ёшда – 30 ёшга тўлмаган кишиларда учрайди, беморларнинг кўпчилиги аёллардир. Касалликнинг бош симптоми қалқонсимон безнинг катталашуви ҳисобланиб, бу ютишнинг бузилишига, нафас олишнинг қийинлашувига олиб келади. Катталашган қалқонсимон без ушлаб кўрилганда (палъпация) зичлиги турлича (баъзан ангина қаттиқ) эканлиги маълум бўлади.

Касалликнинг олдини олиш учун кўп йод сақлайдиган маҳсулотларни ейиш тавсия қилинади. Ҳозирги кунда инсон организмига керак бўлган йод миқдорини озиқ-овқат маҳсулотларидан бири бўлган, бир кунлик эҳтиёж учун ишлатиладиган ош тузини йодлаш орқали, яъни организмга керак бўлган бу элементнинг миқдорини ушбу йўл орқали тўйинтириш мумкин.

Х.АХМАТУЛЛАЕВА,
туман СЭО ва ЖСХ бўлими санитария врачининг ёрдамчиси.

Биласизми?

Йўл қоидаси–умр фойдаси

Ҳайдовчи йўл-транспорт ҳодисаси содир этса қуйидагиларга мажбур. Хусусан, транспорт воситасини дарҳол тўхтатиши, авария ишораларини ёқиши ва авария сабабли тўхташ белгисини ўрнатиши, транспорт воситасини ва ҳодисага дахлдор буюмларни жойидан қўзғатмаслиги лозим.

Шикастланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш чораларини кўриши, "Тез тиббий ёрдам" ва «Фавқулодда қутқарув» хизматларини чақириши, шошилинч ҳолларда эса шикастланганларни яқин орадаги даволаш-профилактика муассасасига йўлакай транспорт воситасида жўнатиши, бунинг имкони бўлмаган ҳолларда ўз транспорт воситасида олиб бориши шарт. У ерда ўз исми-шарифи, транспорт воситасини рўйхатдан ўтказиши, давлат рақам белгиси ҳақида ахборот бериши (ўз шахсини тасдиқловчи ҳужжатни ёки ҳайдовчилик гувоҳномасини ва транспорт воситасини рўйхатдан ўтганлик ҳужжатини кўрсатиши) ва ҳодиса рўй берган жойга қайтиб келиши зарур.

Агар бошқа транспорт воситаларининг ҳаракатига тўсқинлик қилса, йўлнинг қатнов қисмини бўшатиши даркор. Қатнов қисмини бўшатиш ёки шикастланганларни ўз транспорт воситасида даволаш-профилактика муассасасига олиб бориш зарур бўлганда, йўл-транспорт ҳодисасига дахлдор ҳайдовчилар, аввало, транспорт воситаси, ҳодисага алоқадор буюмлар ва изларнинг ҳолатини гувоҳлар иштирокида дастлабки қайд этишни амалга ошириши, уларнинг йўқолмаслиги ва ҳодиса рўй берган жойни айланиб ўтишни ташкил қилишнинг барча чораларини кўриши керак. Ҳодиса ҳақида ички ишлар органларига хабар бериши, гувоҳларнинг исм-шарифини ва яшаш манзилини ёзиб олиб, ички ишлар органлари ходимларининг келишини кутиши жоиз ҳисобланади.

Майор
Умрзоқ СОБИРОВ,
ҳарбий хизматчи.

Mavsumni talofatlarsiz o'tkazaylik

Paxta-2025

Respublikamiz hududi bo'ylab paxta yig'im-terim mavsumiga uyushqoqlik bilan boshlandi. Shu munosabat bilan joylarda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tuman favqulodda vaziyatlar bo'limi tomonidan paxta yig'im-terimi mavsumida dehqonlarimiz yetishtirgan oq oltinni qabul qilish va qayta ishlash maskanlariga olib borish, uni saqlash vaqtida yong'in xavfsizligi qoidalariga qat`iy rioya qilishimiz lozim bo'ladi. Xususan, paxta tashish texnikalariga uchqun so'ndirgichlar o'rnatish, qabul punktlarida esa sigareta chekmaslik, ochiq olovdan hamda payvandlash qurilmalaridan foydalanmaslik bo'yicha ishchi xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlari va yo'riqnomalar berib borilmoqda.

Terilgan paxtani uylar, ko'chalar, yo'llar, maxsus belgilanmagan va yong'in xavfsizligi qoida-talablariga javob bermaydigan joylarda saqlash, quritish qat'iyan taqiqlanadi. Paxtani yong'indan saqlash maqsadida, tumanimizdagi «Bandixon textil klaster" MChJga qarashli paxtani qayta ishlash zavodi va hosilni qabul qilish maskanlariga Muzrabot tumani FVB 7-sonli kasbiylashtrilgan yong'in qutqaruv qismi xodimlari xizmatga jalb etilgan. Joylardagi yong'inga qarshi suv hovuzlari, yong'in o'chirish qalqonlari va anjomlarini jangovar shay holatga keltirish ham mavsumning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Endigi kechiktirib bo'lmas vazifa esa, yig'ishtirib olinayotgan paxta xom ashyosini yong'indan saqlashga e`tibor qaratilmog'i zarur bo'ladi. Bu borada fermer xo'jaligi rahbarlari, yig'im-terimga mutasaddi mutaxassislar ham doimiy ravishda nazoratni yo'lga qo'ysalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Shundagina ushbu mavsumni ko'ngilsiz hodisalarsiz o'tkazishga erishgan bo'lamiz.

S.QODIROV,
Muzrabot tumani FVB P va NB PN inspektori, katta leytenant.

Birni ko`rib fikr qil...

OQIBAT

Ularning hovlisi yon-atrofdagi qo`shnilarnikiga qaraganda ikki marta kichikroq edi. Jimitdekkina hovlida boshqa uylarga qaraganda juda oddiy bo`lib ko`rinuvchi uy, devorlari o`pirilib, nuray deb qolgan og`ilxona, ikki tup o`rik daraxti, bir chekkada ozgina ekin ekilgan yer va xom g`ishtdan to`rtburchak qilib qurilgan kichikroq supa, uning ustiga esa rangini uzoq vaqt tikilsangiz ham aniqlay olmaydigan bir tusdagi gilam to`shalgan edi.

Tush vaqti bo`lgani uchun og`ilxonadan ovozlar kela boshladi. Uy eshigi sekin ochildi va izinma-ketin chol-u kampir chiqib kelishdi. Ular bir-biriga juda o`xshar edi. Tashqi qiyofalari yoshlik chog`larida qanday bo`lgan bilmadimu, ammo hozir ularning yuzlaridagi ajinlarni sanashga barmoqlarim kamlik qiladi. Jussalari esa bir xil, ularni ko`rib beixtiyor "dala qo`riqchisi"ni eslaysiz.

Og`ilxonada chol-kampirning bor-bud boyliklari – ona-bola echkilari bor. Ularning qornini to`ydirish uchun har doim ikkovlari birgalikda kelishardi. Bundan tashqari ularning yana bir mashg`uloti bu–o`sha chekkadagi ikki qulochgina ekin ekilgan yer edi. Hozir bu yerda pomidor, bodring, oshqovoq, baqlajon va ularning orasiga bir tekis qilib makkajo`xori qadab chiqilganini ko`rishimiz mumkin.

Bu chol-u kampir har kuni quyoshdan avval uyg`onib, o`sha chekkadagi ekinzorda o`z rizqlari uchun ter to`kib mehnat qiladilar. Saharmardondan ekinlarni parvarishlaydilar, oftob yoyilgandan so`ng uylariga kirib, dam oladilar. Kun og`ishi bilan esa yana o`sha doimgi ishlariga sho`ng`ishadi.

Ha aytgancha, bu chol va kampirni tanishtirish esimdan chiqibdi. Ular shahardagi eng katta tadbirkor va respublikadagi eng namunali hokimlarimizdan birining ota-onasi...

Lobar ISLOMOVA,
Termiz davlat universiteti O`zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi.

Тарихга назар

Бухоро амирлиги даврида суд ишлари

хусусан, Сурхон воҳасидаги бекликларда соҳа мансабдорлари кимлар бўлишган?

Тарихчилар, хусусан, тарих фанлари доктори, профессор Эшболта Қобулов ва Камолиддин Қобуловларнинг “Манғитлар ҳукмронлиги даврида Сурхон воҳасида ижтимоий-иқтисодий ҳаёт” номли монографиясида ҳамда Қарши Давлат университетининг “Ўзбекистон тарихи” кафедраси ўқитувчиси Баҳодир Эшовнинг “Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи” деб номланган китобида баён этилишича, Сурхон воҳаси бекликлари Бухоро амирлигига тобе этилгач, қисқа вақт ичида бошқарув тартиби тўла амирлик ихтиёрига олинган. Бухоро амирлиги чекланмаган ҳуқуққа эга амир томонидан бошқарилган. Амирликда олий маъмурий ҳокимият қўшбеги қўлида бўлиб, у амир йўқ пайтида амирликни бошқариш ҳуқуқига ҳам эга бўлган. Манғитлар ҳукмронлиги даврида қўшбеги энг олий мансаб ҳисобланган.

Бухоро амирлигида ислом дини ва уни қонун-қоидалар асосида бошқариш лавозими шайхулислом лавозимидаги олий дин мансабдори ихтиёрида бўлган. Диний ишларни назорат қилиш мақсадида ўроқ, судур ва садр каби учта диний лавозим ҳам жорий этилган. Суд ишлари назорати қозикалон ихтиёрида бўлган, қонун ижроси ва ислом динига эътиқод назоратини раис бошқарган, у қозикалон олдида ҳисобот берган.

Бекликларда барча маъмурий-бошқарув ҳуқуқлари амир томонидан тайинланган бек қўлида бўлган. Беклар юқори табақа вакилларидан бўлиб, асосан йирик ер эгалари бўлишган. Амирликда мансаблар қариндошлик асосида берилган бўлса ҳам бек лавозими масъулиятли бўлганлиги сабабли оддий фуқаро ҳам бу лавозимга тайинланиши мумкин бўлган.

Бекликнинг суд ишлари қози қўлида бўлиб, у ҳам амир томонидан тайинланган. Қози нафақат суд ишларини бошқарган, балки маҳаллий ҳоким фаолиятини ҳам назорат қилиб турган. Амирликда қози-раислар бекларнинг ҳар бир қадамини кузатиб, бу ҳақда Бухорога хабар бериб турганлар. Улар томонидан юборилган хабар ҳеч бир текширувсиз бекни вазифасидан озод қилишга олиб келиши мумкин бўлган. Бекни вазифасидан озод қилиш қозини алмаштиришдан осон бўлган. Шу тариқа марказий ҳокимият икки томонлама назоратни йўлга қўйган.

1914 йилда Бухоро амирлигида 67 та маҳаллий қози бўлиб, ҳар бир бекликда амир фармони билан тайинланган 5-12 тагача муфти ҳам бўлган. Бундан ташқари, маҳаллий бошқарув тизимида диний-миршаблик фаолияти билан шуғулланувчи диний уламолар муҳим ўрин тутган. Улар уч тоифага бўлинган. Булар қози, муфтий ва раислардир. Бутун Бухоро амирлигида 67 та қози ва 68 та раис фаолият юритган.

Хусусан, Сурхон воҳаси бекликларида бу мансабдорлар қуйидагилар бўлишган: Бойсун беклигида мулла Абдулнаимҳожи – қози, мулла

Абдулнозир – раис; Денов беклигида мулла Нуъмон – қози, мулла Муҳаммад Қурбон – раис; Шеробод беклигида мулла Абдурахмон – қози, мулла Нусратуллахўжа – раис. Айрим вақтларда қози ва раис лавозимига бир киш тайинланган. 1914 йилда Амир Олимхон томонидан Шеробод беклигининг қозиси ва раиси этиб мулла Салоҳиддин тайинланганлиги бунга мисол бўлади.

Шу тариқа, Сурхон воҳаси бекликларида фуқаролар манфаатини ҳимоя қилиш, адолат ва назорат тизими бек, қози ва раис қўлида бўлиб, фақат ўлим жазоси амир фармони ила амалга оширилган.

Р.БЕГИМОВ,
Сурхондарё вилояти суди судьяси.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik

yoxud bu kabi holatlarni aniqlash va ularni himoya qilish tartibi belgilandi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, zo‘ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida” 2025-yil 14-iyuldagi 440-son qarori bilan nizom tasdiqlandi.

Ushbu nizomga ko‘ra, zo‘ravonlikdan jabrlangan yoxud o‘ziga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo‘lgan bolalar bevosita o‘zlari yoxud qonuniy vakillari “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, ichki ishlar va boshqa mas’ul organlarga murojaat qilishi belgilangan. Jumladan, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari, ichki ishlar organlari ishtirokida bolaning hayotiy vaziyatini 1 kun muddatda o‘rganadilar.

Bunda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga tahdid soluvchi omillarni dastlabki baholashdan o‘tkazadi hamda xavf darajasini “past” yoki “yuqori” deb topishi mumkinligi hamda xavf darajasi “yuqori” deb baholanganida, ichki ishlar organi quyidagi choralardan birini ko‘radi. Masalan, zo‘ravonlik sodir etgan shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish hamda protsessual majburlov choralarini qo‘llash; bolaga yoxud uning qonuniy vakiliga himoya orderini berish; bolani ota-onasidan (ularning biridan) yoxud uni o‘z qaramog‘iga olgan boshqa shaxslardan olib qo‘yish va uning xavfsizligini ta’minlash.

Tahdid soluvchi omillar bartaraf etilgach, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bolaning hayotiy vaziyatini 14 kalendar kun ichida kompleks baholashdan o‘tkazadi. Kompleks baholash natijalariga ko‘ra 3 ish kuni ichida bolani himoya qilish rejasi ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga quyidagi ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkin: tuzatish dasturidan o‘tish; bolalarini olib qo‘yish; ota-onalik huquqini cheklash yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish; narkologiya muassasalarida majburiy davolanish; majburiy tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini tayinlashligi ko`rsatib o`tilgan.

Barchin MUXAMMADIYEVA,
tuman FHDYO bo‘limining 1-toifali inspektori, xalq deputatlari tuman Kengashi deputati.

Ҳуқуқий мавзу

Медиация - низоларни ҳал этишнинг қонуний ечими

Ўзбекистон Республикасининг Медиация тўғрисидаги Қонунига асосан тадбиркор ва фуқаролар судга ва бошқа давлат идораларига сарсон бўлиб ортиқча вақт ва маблағини сарфламасдан низоларни келишув асосида ҳал қилишлари мумкин. Жисмоний ва юридик шахслар ҳам медиация тарафлари бўлиши мумкин.

Ушбу Қонуннинг амал қилиши фуқаролик ҳуқуқий муносабатлардан, шу жумладан, тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш муносабати билан келиб чиқадиган низоларга, шунингдек, якка меҳнат низоларига ва оилавий ҳуқуқий муносабатлардан келиб чиқадиган низоларга медиацияни қўллаш билан боғлиқ муносабатларга нисбатан, агар қонунда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, татбиқ этилади. Ушбу қонун Жиноят кодекси ва маъмурий ҳуқуқбузарлик кодекслари билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатларга татбиқ этилмайди. Эслатиб ўтмоқчимиз, суд жараёнида тарафлар медиация келишувига эришсалар, келишув судга тақдим этилса, суд тарафларни давлат божидан озод қилади. Медиацияда иштирок этганлик факти айбни тан олиш далили бўлиб хизмат қилиши мумкин эмаслиги белгиланган.

Қонуннинг 12-моддасида “Медиаторнинг фаолияти профессионал ёки нопрофессионал асосда амалга оширилиши мумкин. Профессионал асосдаги медиатор фаолиятини Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган медиаторларни тайёрлаш дастури бўйича махсус ўқув курсидан ўтган, шунингдек, Профессионал медиаторлар реестрига киритилган шахс амалга ошириши мумкин. Нопрофессионал асосдаги медиатор фаолиятини йигирма беш ёшга тўлган ва медиатор вазифаларини бажаришга розилик берган шахс амалга ошириши мумкин. Нопрофессионал асосдаги медиатор фаолиятини амалга оширувчи шахс ҳам Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан тасдиқланадиган медиаторларни тайёрлаш дастури бўйича махсус ўқув курсидан ўтиши мумкин.

Қуйидагилар медиатор бўлиши мумкин эмас:

давлат вазифаларини бажариш учун ваколат берилган ёки унга тенглаштирилган шахс, бундан нотариуслар мустасно;

муомала лаёқати чекланган ёки муомалага лаёқатсиз деб топилганлиги тўғрисида суднинг қонуний кучга кирган ҳал қилув қарори мавжуд бўлган шахс,судланганлик ҳолати тугалланмаган ёки судланганлиги олиб ташланмаган шахс, ўзига нисбатан жиноий таъқиб амалга оширилаётган шахс”.

Қонуннинг 15-моддасида “Медиация тарафларнинг хоҳиш-истаги асосида қўлланилади. Медиация суддан ташқари тартибда, низони суд тартибида кўриш жараёнида, суд ҳужжатини қабул қилиш учун суд алоҳида хонага (маслаҳатхонага) киргунига қадар, шунингдек, суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш жараёнида қўлланилиши мумкин.

Медиация низони ҳакамлик судида кўриш жараёнида ҳам ҳакамлик судининг қарори қабул қилингунига қадар қўлланилиши мумкин.

Медиация суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш жараёнида қўлланилган тақдирда фаолиятини профессионал асосда амалга оширувчи медиаторнинг албатта иштирок этиши талаб этилади” деб белгиланган.

Медиацияда иштирок этганлик факти айбни тан олиш далили бўлиб хизмат қилиши мумкин эмаслиги қонунда кафолатланган. Шунингдек, қонуннинг 23-моддасида:

“Медиация тартиб-таомилини амалга ошириш муддати медиация тартиб-таомилини амалга ошириш тўғрисидаги келишувда белгиланади. Бунда медиатор ва тарафлар медиация тартиб-таомили ўттиз кундан ортиқ бўлмаган муддатда тугалланиши учун барча мумкин бўлган чораларни кўриши керак. Зарур бўлган тақдирда, медиация тартиб-таомилини амалга ошириш муддати тарафларнинг ўзаро розилиги билан ўттиз кунгача узайтирилиши мумкин, бундан ушбу модданинг иккинчи қисмида назарда тутилган ҳоллар мустасно.

Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш жараёнида медиация тартиб-таомилини амалга ошириш муддати кўпи билан ўн беш кунни ташкил этади” деб белгиланган.

Шунингдек, медиаторларга Профессионал асосдаги медиаторнинг фаолияти ҳақ эвазига ёки текин амалга оширилиши мумкин. Нопрофессионал асосдаги медиаторнинг фаолияти текин амалга оширилади. Нопрофессионал медиаторга унинг медиация тартиб-таомилини амалга ошириш билан боғлиқ ҳолда қилган харажатларининг, шу жумладан, низони кўриб чиқиш жойига бориб келиш учун йўл ҳақи, яшаш ва овқатланиш харажатларининг ўрни қопланиши мумкин деб белгиланган.

Қисқа қилиб айтганда, мазкур қонун низоларни бартараф этиш, норозиликлар олдини олиш учун ортиқча вақт сарфламасдан, судлашмасдан низоларни тарафлар ўртасида ихтиёрий ҳал қилиш тушунилади. Медиатив келишув тарафлар ўртасида ҳуқуқ ва мажбурият юкловчи ҳужжат ҳисобланади. Медиатив келишув давлат ижро органларига мажбурий бажариладиган ҳужжат ҳисобланмайди. Қонуннинг асосий вазифаси низоларни судгача ёки суд жараёнида, ижро жараёнида келишув асосида бартараф этишдан иборат.

Аброр ЖЎРАЕВ,
туман йўллардан фойдаланиш корхонаси давлат муассасаси юрисконсульти.

O‘zlik

Ilm yo‘lidagi hayot maktabim

Yaqin o‘tmishga aylangan 2022-yil 2-noyabr sanasi mening hayotimda alohida o‘rin egallaydi. Aynan shu kunda men Termiz Davlat universiteti jamoasi safiga qo‘shilib, o‘z mehnat faoliyatimni ushbu muhtaram ilm dargohida boshladim. Oradan uch yil o‘tgan bo‘lsa-da, universitet, undagi ilmiy muhit va ijodiy izlanish ruhi hanuz hayotimning ajralmas bir qismiga aylangan.

Termiz Davlat universiteti – bu nafaqat oliy ta’lim muassasasi, balki insonni kamolga yetaklaydigan, uni o‘zligini topishga undaydigan hayot maktabidir. Bu dargohda faoliyat olib borar ekanman, har kuni yangicha fikrlar, izlanishlar va tajribalar orqali o‘z ustimda ishlash, bilim va malakalarimni oshirish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

Universitetda yaratilgan imkoniyatlar, tajribali professor-o‘qituvchilar bilan ishlash, ilmiy seminar va konferensiyalarda faol ishtirok etish, talabalarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi loyihalarda qatnashish –bularning barchasi hayotimga mazmun bag‘ishladi. Har bir o‘tilgan kun, har bir bajarilgan vazifa, har bir muvaffaqiyat yoki sinov – meni yanada kuchliroq, tajribaliroq va maqsadliroq shaxs sifatida shakllantirdi.

Bugun faoliyatimga 3 yil to‘layotganiga qaramay, dorilfunun mening uchun hanuz ochilmagan imkoniyatlar manbai, yangi qirralarni kashf qilish sari yetaklovchi ilhom maskani bo‘lib qolmoqda. Bu yerda ilm-fan sohasidagi izlanishlar, zamonaviy ta’lim tamoyillari va insoniy qadriyatlar uyg‘un holda mujassam.

Shuni ishonch bilan ayta olamanki, Termiz Davlat universiteti – bu mening ilmiy va kasbiy shakllanishimda muhim rol o‘ynagan muassasa. Bu dargohdagi faoliyatim davomida orttirgan bilim va tajribalarim nafaqat bugungi kunim, balki ertangi yutuqlarimning ham poydevoridir.

Jamshid NAZAROV,
Termiz Davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti tyutori.

Радикализм – жамият учун жиддий хавф

Барча бирдек курашиши керак

Радикал сўзи – муайян шахс ёки гуруҳнинг мавжуд ижтимоий, сиёсий ва маданий ҳолатни тубдан ва муросасиз ўзгартириш истагидан иборат жараёндир.

Замонавий радикализмда зўравонликдан фойдаланиш устун туради. Ижтимоий муаммоларни ҳал қилишда зўрлик усуллари ва воситаларидан фойдаланишни қўллаб-қувватлаганлиги учун радикализм бевосита экстремизмнинг назарий манбаи бўлиб қолмоқда. Шу учун бугунги кун ахборот воситаларида «экстремистик оқим тарафдорлари», «террористик акт», «ақидапарастлик ғоясига йўғрилган» каби жумлалар қаторида «диний радикализм» атамаси ҳам тез-тез такрорланади.

Диний радикализмнинг мазмун-моҳияти унинг бошқа кўринишлари каби ўзига мос келмайдиган бошқа ҳар қандай оқим ва қарашларга нисбатан муросасизликда, жамият тараққиётига зид, ғайриинсоний ғоя ва қарашларни илгари суришда кўзга ташланади. Бунда шахс ўз диний эътиқодини ҳақ деб билиб, ўзгача эътиқодий қарашлар ва фикрларга муросасиз ва кескинлик асосида ёндашади, уларни зўрлик йўли билан ўзгартириш тарафдорига айланади. Бу кўпинча жамиятда мавжуд турли диний конфессияларга кескинлик билан ёндашиш, бир дин доирасидаги ўзга мазҳаб ёки қарашларни муросасиз инкор этиш ҳамда уларни рақиб сифатида қабул қилишда намоён бўлади.

Мутахассиснинг таъкидлашича, бугунги кунда радикаллашув жараёнининг кескин ривожланиб боришига:

ёшлардаги тажрибасизлик, ҳиссиётга таяниб иш юритиш туйғусининг мавжудлиги, ташқи таъсир натижасида руҳий ҳолатдаги ўзгарувчанлик;

руҳий тушкунликка тез тушиш ва руҳий зарбаларга чидамсизлик;

яқинлар эътиборидан бутунлай четда қолиш;

ўта қизиқувчанлик ҳамда ахборотларни тўлақонли таҳлил қилмаслик, ишонувчанлик каби бир қатор омиллар асосий сабаб бўлмоқда.

Хусусан, радикал ва экстремистик ғояларни тарғиб қилганлиги натижасида жавобгарликка тортилган бир гуруҳ шахслар билан олиб борилган суҳбат давомида уларнинг аксарияти:

диний илмларни эгаллашга бўлган қизиқиш ва интилиш;

ишонувчанлик ҳисси; бирданига ва ҳамма нарса (бойлик, шон-шуҳрат, мартаба ва бошқалар)га эга бўлишга ҳаракат қилиш;

қолаверса, оиладаги моддий қийинчилик ва етишмовчилик, ишсизлик, кам таъминланганлик, аламзадалик, сиёсатдан норозилик каби қатор ижтимоий ҳолатлар уларни ушбу мафкура томон етаклаганлигини таъкидлаганлар.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, бугунги шиддатли замонда радикализм, экстремизм ва терроризм каби ғояларга қарши курашни биргина давлат ёхуд қайсидир бир орган миқёсида олиб бормаслик керак. Балки фуқаролик жамиятининг ҳар бир бўғини, ҳар бир оила, ҳар бир фуқаро миқёсида ташкил этишгина бутун жамиятдаги иммун тизимнинг бир меъёрда ва самарали фаолият юритишига йўл беради.

Бир сўз билан айтганда, радикализмнинг ҳар қандай кўриниши жамият учун хавфлидир. Маълум бир радикал гуруҳларнинг жамиятда таъсири ошиб кетиши бошқа қатламларнинг ҳуқуқи ва эрки чекланишига ҳам олиб келади. Шундай экан, жамият учун очиқ фикрли, ўзини, билимларини аямайдиган изланишдан тўхтамайдиган, ўз устида ишлайдиган, ҳақиқатни айтишдан қўрқмайдиган интеллектуал инсонлар керак.

Майор О.ФАЙЗИЕВ,
туман ички ишлар бўлими ТҚҲ ЖҚБ катта тезкор вакили.

Болаларни тарбияламанг: улар барибир сизга ўхшашади. Шунинг учун ўзингизни тарбияланг.

Исроил ШОМИРОВ

Terrorizm va ekstremizmga qarshi

Kўнглинг тўғри бўлса, қўлинг қийшаймас...

Бугун дунёни ўргимчак тўри мисол кенг камраб олаётган Интернетнинг ижтимоий тармоқларидан узатилаётган турли миш-мишли хабар ва маълумотлар базасининг аксарияти ёлғон-яшиқ сўзлардан иборат эканлиги кўп бора исботланган. Уларнинг кўпчилиги қўпорувчилик, терроризм ва экстремизм каби жирканч иллатларнинг ёт ғоялари билан суғорилгани ҳам айни ҳақиқат эканлигини ҳаётнинг ўзи исботлаб турибди. Ёвуз кимсалар ўз сайтларида турли хил бўлмағур даъватларни жойлаштириб, миллатни миллатга қайрашга, улар ўртасида ўзаро низолар келтириб чиқариб, халқлар тинчлигини бузишга интилишмоқда.

Статистик маълумотларга қараганда, уларнинг аксарияти ўз тарғиботларини Интернет оркали амалга оширмоқда. Бундан кўриниб турибдики, улар ҳар қандай қаллобликлардан, ёвузликлардан тап тортмайдиган манқуртлардир. Бундай ғаламисларнинг қилмишларини, иғволарини бутун дунё аҳли қораламоқда. Минг афсуски, бугунги кунда кўпчилик йигит-қизларимиз Интернет орқали келаётган ҳар қандай маълумотни, хабарни ҳақиқат деб қабул қилишаётганликлари жиддий муаммоларни келтириб чиқармоқда. Натижада уларнинг таълим-тарбиясига ҳам хавф солмоқда.

Шундай экан, Интернетдан фойдаланишда ундан олинган маълумотларга кўр-кўрона ишонмаслик ва зарарсиз эканлигини билмоғимиз лозим. Бугунги жараён ҳар биримиздан огоҳ ва ҳушёр бўлиб яшашни тақозо этаётир. Теварак-атрофимизда рўй бераётган воқеа ва ҳодисаларга теран кўз билан боқиб, онгли муносабатда бўлмоқлик эса ҳар қандай хавф-хатар ва кўнгилсизликларнинг олдини олиши шубҳасиз. Айниқса, ўсиб келаётган ёш авлодни турли бузғунчи ва ёт ғоялар таъсиридан ҳимоя қилиш, уларни она Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш бугунги куннинг долзарб вазифаларидан ҳисобланади.

Маънавий комил инсон ҳеч қачон ёт ғоялар таъсирига тушиб қолмайди. Ҳаётга онгли муносабатда бўлиб, ақл-идроки билан иш юритади. Маънавий қашшоқ кишилар эса кимларгадир тобе бўлиб қолиши тайин. Нияти қора кимсалар эса бундан устамонлик билан фойдаланиб, уларни ўз измига бўйсиндиришга мажбур қиладилар. Ўз домига тортиб, ғараз мақсадларини амалга оширишга интиладилар.

Энг ачинарли жиҳати шундаки, бундай аҳволга беҳосдан тушиб қолаётган ёшларимизнинг аксарияти хорижий давлатларга ишлаш учун бориб, ўзлари билиб-билмай жиноят оламига кириб қолишмоқда. Ёлғон ваъдалар, сохта даъватларга ишониб, бўлмағур ишларга қўл уришаётгани ҳам айни ҳақиқат.

Шундай экан, фарзандларимизга тўғри таълим-тарбия бериш, уларни билимли ва заковатли қилиб вояга етказиш ҳар бир ота-она учун катта масъулият юклайди. Зеро, бугунги ўсиб келаётган ёшларимиз эртанги кун давомчиларидир. Уларни ёт ғоялар таъсиридан ўз вақтида ҳимоялаш эса биз, катталарнинг асосий бурчимиздир.

С.ШОБЕРДИЕВ.

Xabaringiz bormi?

Yangi tartib joriy etildi

elektr energiyasida yo‘qotishlar nazorat ostida

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-iyuldagi 472-son qarori bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlashda yuzaga keladigan texnologik sarflarning ruxsat etilgan me’yorlarini hisoblash va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlandi.

Mazkur hujjat O‘zbekistonda elektr energetika sohasidagi islohotlarning muhim bosqichiga aylandi. Energiya resurslaridan foydalanishda samaradorlikni oshirish, yo‘qotishlarni aniq hisoblash va cheklash orqali tarmoqda tartib-intizomni kuchaytirish — Nizomning bosh maqsadi hisoblanadi.

Nizomning mazmuni nimadan iborat? Nizomda elektr energiyasining ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bosqichlarida yuzaga keladigan texnologik sarflarni hisoblash tartibi va ular uchun ruxsat etilgan me’yorlarni belgilash mexanizmi ko‘rsatilgan.

Endilikda:

har bir energiya ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi korxona uchun texnologik yo‘qotishlarning me’yoriy chegarasi belgilanadi;

sarf me’yorlari ilmiy asosda, texnologik ko‘rsatkichlar, tarmoqlar uzunligi, uskunalarning holati va boshqa omillar asosida an’anaviy hamda zamonaviy metodika orqali hisoblanadi;

me’yorlardan ortiqcha yo‘qotishlar uchun aniq javobgarlik mexanizmi joriy etiladi.

O.ALLABERDIYEV,
tuman adliya bo‘limi boshlig‘i.

Jinoyatchilikka qarshi tajriba bilan

nafaqadagi zobitlar endi mahallalarda profilaktika ishiga jalb qilinadi

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 7-iyuldagi 140-son buyrug‘i bilan yana bir innovatsion tashabbus hayotga tatbiq etildi. Ushbu hujjat (23-iyul kuni Adliya vazirligida 3651-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) orqali Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda pensiyadagi tajribali sobiq ichki ishlar xodimlarini shartnoma asosida profilaktika ishlariga jalb qilish tartibi tasdiqlandi.

Mazkur tartib huquqbuzarliklarning oldini olishda inson resurslaridan samarali foydalanish, tajriba va bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, hamda murakkab hududlardagi kriminogen vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan. Endilikda nafaqaga chiqqan, ichki ishlar sohasida ko‘p yillik amaliyotga ega bo‘lgan sobiq xodimlar:

shartnoma asosida muammolarni aniqlash, muammoli oilalarni kuzatib borish;

yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borish;

profilaktika inspektorlariga ko‘mak berish, xavf guruhi vakillari bilan ishlash;

aholining murojaatlari va ijtimoiy xavf omillarini o‘rganish;

“mahalla yettiligi” tizimiga qo‘shilib, jamoaviy profilaktik faoliyatni yuritish ishlarini amalga oshiradilar.

O.JUMAYEV,
tuman adliya bo‘limi bosh maslahatchisi.

Investorlarga yangi imkoniyat

Prezident qarori bilan ular asosiy e’tiborni amaldagi natijalarga qaratadi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 18-iyul kuni “Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi majlisi doirasida erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ–226-son qaror qabul qilindi.

Qaror mamlakatda investitsiya muhiti barqarorligini ta’minlash va xalqaro sheriklar ishonchini mustahkamlash yo‘lida muhim huquqiy asos bo‘ldi. Mazkur qaror xalqaro darajadagi kelishuvlarning amaliy natijaga aylanishi uchun zarur bo‘lgan barcha tashkiliy, huquqiy va institutsional chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xorijiy investorlar kengashi – O‘zbekiston hukumatining bevosita ishtirokida xorijiy kapital egalari bilan o‘tkaziladigan yuqori darajadagi muloqot maydonidir. U orqali xalqaro kompaniyalar va investorlar o‘z taklif va tashabbuslarini bevosita hukumatga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

D.YO‘LDOSHEVA,
viloyat adliya boshqarmasi inson huquqlarini himoya qilish shubasi bosh maslahatchisi.